

MAKTAB BO‘YLAB SAYOHAT

O‘quvchiga esdalik

Bo‘lay desang bog‘bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o‘qish kerak.
O‘quvchi, sendan talab:
Maktabga bor ertalab,
O‘qi, berib mehringni,
Qo‘yib ko‘ngil, zehningni.

Quddus Muhammadiy



Akmal, nima deb o‘ylaysan, maktabimizda sport zali va sinfxonalardan tashqari yana boshqa xonalar ham bormi?



Kel, buni birgalikda bilib olamiz!
Maktab bo‘ylab sayohat qilamiz!

MAKTAB



Bu – **o‘quv sinfi**. Shunga o‘xshash sinfxonalarda bolalar matematika, o‘qish, ona tili, texnologiya kabi turli fanlarni o‘rganadilar.

Siz qanday fanlarni o‘rganishni boshladingiz?




Bu – **maktab koridori**. Bu yerda tanaffus payti o‘quvchilar vaqt o‘tkazishlari mumkin. Koridorda yugurish va shovqin solish mumkin emas.

Nima deb o‘ylaysiz, nima uchun mumkin emas?



Maktabimizda o‘zni tutish qoidalari bor:

- maktab formasida kelish;
- ozoda, tartibli holda yurish;
- darslarga kechikmaslik;
- maktab mulkini asrash;
- uyali telefondan foydalanmaslik.



Siz yana qanday qoidalarni bilasiz?



Sport zalida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Bu yerda o‘quvchilar jismonan chiniqadilar. Sport zaliga o‘qituvchi yoki murabbiy boshchiligida kirgan ma‘qul.

Nima deb o‘ylaysiz, nima uchun shunday?



Tadbirlar zalida maktab yig‘ilishlari va bayramlar o‘tkaziladi. Bu yerda sahna hamda tomoshabinlar uchun o‘rindiqlar mavjud. Bolalar sahnada o‘z qobiliyatlarini namoyish etadilar, qo‘shiq kuylaydilar va raqsga tushadilar.

Tadbirlar zalida o‘zingizni qanday tutishingiz kerak? Nima uchun?





Maktab oshxonasi o‘quvchilarning katta tanaffus paytida nonushta qilishlari yoki to‘laqonli tushlik qilishlari uchun kerak. Ovqatlanishdan oldin va keyin qo‘llarni yuvish lozim. Ovqatlanish vaqtida telefondan foydalanish sog‘lik uchun zarar.

Siz maktab oshxonasida o‘zingizni qanday tutishingiz kerakligini bilasizmi?



Kitob – bilim olishning muhim va ishonchli manbalaridan biri.

Maktab kutubxonasida turli xil qiziqarli kitoblar saqlanadi. O‘quvchilar kutubxonadan kitob olishlari, ularni o‘quv zalida yoki uyga olib ketib o‘qishlari mumkin. Biroq o‘qish uchun olingan kitoblarni kutubxonaga o‘z vaqtida, butun holda qaytarish kerak.


Siz qanday kitoblarni o‘qigansiz?





Bu – **tibbiyot xonasi**. Bu yerda maktab shifokori va hamshirasi ishlaydi. Ular kimdir jarohat olsa yoki betob bo‘lib qolsa, birinchi yordam ko‘rsatadilar.

Qachon shifokor yoki hamshiraga murojaat qilish kerak?



Maktab psixologi murakkab vaziyatlarda maslahat beradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan mutaxassisdir. Agar o‘quvchi maktabda, uyda yoki ko‘chada qandaydir muammoga duch kelsa, bu haqida psixolog bilan suhbatlashishi mumkin. Xafagarchilik, xavotir yoki tashvishlarni ichda saqlab yurish kerak emas. Agar biror noxush voqea sodir bo‘lsa, maktabdagi barcha kattalar bolalarga yordam berishga tayyor.





Hojatxona nima uchun kerakligini hamma biladi. Uni toza saqlash kerak. Ishlatilgan hojatxona qog‘ozini maxsus qutiga tashlang, har doim suv chiqarish tugmasini bosing. Shunda hammaga hojatxonadan foydalanish qulay bo‘ladi. Shuningdek, hojatxonaga borgandan keyin qo‘llarni sovunlab yuvish muhimdir.

Siz qo‘llarni qanday to‘g‘ri yuvishni bilasizmi?




Suvni asrang!

1. Jo‘mrakni yoping.
2. Suvdan oqilona foydalaning.
3. Agar suvning sizib chiqayotganini ko‘rsangiz, kattalarga xabar bering.
4. Suvni kuler yoki termosdan iching.

Suvni birgalikda asraylik, zero uning har bir tomchisi hayot uchun juda muhim!



Bu dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?





Evakuatsiya xavf-xatar yuzaga kelganda (masalan, yong‘in yoki zilzila paytida) binodan tez va xavfsiz chiqib ketish demakdir.

Eng asosiysi – bunday vaziyatda vahimaga tushmaslik, kattalarni tinglash va xavfsiz joyga o‘tish.

Bunday holatlarda koridor devorlariga ilib qo‘yilgan **evakuatsiya rejasi**ga e‘tibor qaratish kerak.



Asosiy evakuatsiya yo‘li



Yong‘indan ogohlantirish tugmasi




O‘t o‘chirgich



O‘t o‘chirish krani

Evakuatsiya rejasi





Maktab uchastkasiga maktab atrofidagi hududlar kiradi. Har bir sinfga ushbu uchastkaning kichik bir qismi biriktirilgan. U yerga daraxtlar va gullar o‘tqazish mumkin.

O‘simliklarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish va maktab uchastkasini toza saqlash kerak.



Maktab hududida **sport maydonchalari** joylashgan. Issiq fasllarda bu yerda jismoniy tarbiya darslari, futbol va basketbol musobaqalari o‘tkaziladi.

Sport maydonchalarida yana qanday sport turlari bilan shug‘ullanish mumkin?





O‘quvchilar bunday xatti-harakatlarni qayerlarda bajaradilar?



Bu dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?

